


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***70410501 – Moliya magistratura mutaxassisligining***

***MALAKA TALABI***

**Toshkent-2024**



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “01” 08 dagi 277 – sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar .....</b>	<b>10</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar .....</b>	<b>11</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	<b>12</b>
	<b>Bibliografik ma’lumotlar .....</b>	<b>13</b>
	<b>Kelishuv varag‘i.....</b>	<b>14</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

70410501 – Moliya magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi, sirtqi, kechki va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 70410501 – Moliya magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasaning talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiyadan o'tkazuvchi va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot hamda korxonalar;

oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga o'qishga kirayotgan talabalar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

70410501 – Moliya – biznes va boshqaruv ta'lim sohasidagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, davlat moliyasini boshqarish, moliyaviy munosabatlarni tartibga solish, budjet-soliq siyosati, mahalliy budjetlarni boshqarish mexanizmini samarali tashkil etish, iqtisodiyot va moliya boshqarmalari faoliyatini tartibga solish, O'zbekiston Respublikasi budjet tizimidagi muassasa va tashkilotlarning budjet smetalarini

tuzishda ishtirok etish. Xalqaro darajadagi moliya tashkilotlari, investitsiya institutlari, davlat, tijorat, notijorat tashkilotlari, moliya-kredit tashkilotlari, qo‘shma korxonalar, sug‘urta tashkilotlari faoliyati, shuningdek, moliyani rivojlantirish, uning samaradorligini ta‘minlash, istiqbolini belgilash, kasbiy ko‘nikma, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

Fanlar akademiyasi, tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, uning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari;

davlat moliyaviy resurslarini boshqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar;

moliyaviy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi davlat va nodavlat tashkilotlari;

moliyaviy nazoratni olib boruvchi davlat organlari;

moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi auditorlik tashkilotlari;

sug‘urta va lizing kompaniyalari;

investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilot, muassasalar;

budjet tashkilotlari;

budjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlar;

davlat maqsadli jamg‘armalari;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi;

pul muomalasi faoliyatini tashkil etuvchi soha va tarmoqlar;

kassa, hisob-kitob faoliyati bilan shug‘ullanuvchi bo‘limlar;

moliya bozorini tartibga soluvchi davlat organlari;

moliya bozori infratuzilmasiga mansub professional ishtirokchilar;

turli mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakldagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar(XYS)lar;

valyuta birjalari, xalqaro kompaniyalar, xalqaro moliya institutlari va ularning hududiy bo‘linmalari;

xalqaro moliyaviy operatsiyalar bilan shug‘ullanuvchi davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar.

70410501 – Moliya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar fan sohasida magistratura mutaxassisligini tamomlagandan so'ng oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'limi muassasalarida mutaxassislik fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bilan bog'liq kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

*tashkiliy-boshqaruv faoliyati;*

*ilmiy-tadqiqot faoliyati;*

*oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;*

*- moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyati.*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

70410501 – Moliya mutaxassisligi bo'yicha milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish, topish, qayta ishlash, tahlil qilish, xulosa berish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda ishtirok etish;

tadqiqotlar uchun ko'rsatkichlar tizimini tanlash va ularning o'zaro aloqasini modellashtirish;

mutaxassislik bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatda ularni hisobga ola bilishi;

vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, Yangi O‘zbekiston bosh g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtayi nazarga ega bo‘lishi;

xorijiy tillarning kamida birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, iqtisodiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

tegishli magistratura mutaxassisligi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholashi;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;

mehnat jarayonida xavfsizlikni ta’minlash choralari va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga muvofiq ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

pullik ta’lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

mutaxassislik bo‘yicha turli xizmatlarni ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

**oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’limi muassasalarida pedagogik faoliyat:**

oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’limi muassasalarida mutaxassislikka oid o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish;

o‘quv fanlarini o‘qitish uslubiyotini egallash;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha darslarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o‘qitilayotgan fan bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta‘lim va ijodiy izlanish natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

**Moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:**

mahalliy boshqaruvning vakolatli organlari tomonidan hududlar moliyasini boshqarish, tegishli hududlarda budjetlarni shakllantirish, budjet-soliq sohasini isloh qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini, me‘yoriy-huquqiy hujjatlarini bilish;

O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimidagi muassasa va tashkilotlarning budjet smetalarini, moliyaviy rejalarini, yig‘ma moliyaviy balanslarini, budjetlarning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarini hisob-kitob qilish;

kelgusida moliyaviy (budjet) resurslar(i)ning hajmi va ularni shakllanish manbalarini aniqlash bo‘yicha hisob-kitoblarni yuritish;

O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy resurslar balansi, (yig‘ma moliyaviy balansi) prognozini tuzish bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishda qatnashish;

turli darajadagi budjetlar loyihasini tuzish bo‘yicha moliya organlari faoliyatida qatnashish;

majburiy xarajatlar reestri asosida turli shakldagi budjet ajratmalarini rejalashtirish va nazorat qilish;

hisob-kitoblarni tahlil qilish va o‘z yechimini asoslash, moliyaviy va iqtisodiy ma‘lumotlarni qayta ishlash uchun turli vositalardan foydalanish;

kasbiy faoliyat sohasi bo‘yicha qo‘yilgan masalalarni hal qilish uchun zarur statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish usullarini bilish;

moliyaviy nazorat natijasida zaruriy statistik ma‘lumotlarni to‘plash, ularni qayta ishlash, tahlil qilish va talab etilgan tahliliy hisobot yoki umumlashtirilgan qisqacha ma‘lumot shaklida taqdim etish;

statistik va hisob-tahliliy ma‘lumotlarning manbalarini hamda iste‘molchilarning maqsad va vazifalarini aniqlash;

tadqiqotlar uchun ko‘rsatkichlar tizimini tanlash va ularning o‘zaro aloqasini modellashtirish;

tadqiqot va nazorat usullarini hamda vositalarini tanlash;

boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborotlarni yig‘ishni tashkil etishning ichki axborot tizimini yaratish;



budjet hisobini yuritish, budjet hisobotini tuzish va uni taqdim etish, joriy moliya yili uchun tuzilgan budjet smetalarini, O‘zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan budjet tizimidagi fondlari va davlatning budjetdan tashqari fondlarini tahlil qilish;

budjet tashkilotlarida va davlatning budjetdan tashqari fondlarida moliyaviy menejmentni, soliq va budjet tizimining amaldagi faoliyatini takomillashtirish, bank sektorini, moliya bozorini rivojlantirish, korporatsiyalar moliyaviy faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun moliyaviy va iqtisodiy axborotlarni tahlil qilish;

budjet-soliq sohasida, shuningdek, XYSlarda risklarni tahlil qilish va baholash;

tahliliy hisobotlarni tayyorlash, olib borilgan tadqiqot natijalarini izohlash va sharhlash;

xalqaro moliya va kredit tashkilotlarining faoliyati natijalarini jamlash va o‘rganish;

moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash uchun tegishli milliy va xalqaro ma‘lumotlarni jamlash, ularni qayta ishlash, guruhlash va tahlil qilish natijasida tegishli xulosa va takliflarni ishlab chiqish;

moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarga qarshi choralarni ishlab chiqish borasida olib borilgan tadqiqot natijalarini sharhlash;

xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solishning usul va vositalarini bilish;

moliyaviy risklarni tahlil qilish va baholash;

xalqaro moliya institutlari ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;

xalqaro kredit, lizing va xorijiy investitsiyalar bilan bog‘liq operatsiyalarni yuritish;

loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash, natijalarni tahlil qilish;

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.**

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to‘g‘ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;

xorijiy tillarning kamida birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, iqtisodiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lish hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilish, axborotlarni yig‘ish,

saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lish, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha mahalliy va xorijiy grantlarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish va loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lish;

davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlar, davlat va nodavlat tashkilotlari hamda korxonalarida moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish tartib-tamoyillarini bilish;

davlatning ichki va tashqi qarzi munosabatlarida moliyaviy risklarni boshqarishning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini bilish;

davlat moliyaviy resurslarini boshqarish va rejalashtirishda, loyihalarni boshqarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy instrumentlari va uslublaridan foydalana olish;

fiskal siyosatning o'zaro mutanosibligini ta'minlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

budjet daromadlari va xarajatlarining optimalligini ta'minlash tartib-taomillarini bilish;

budjet daromadlarini oshirishning samarali yo'llarini ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

budjet xarajatlarining natijadorligini ta'minlash tamoyillarini bilish;

soliq yuklamasini taqsimlashning zamonaviy nazariyalarini bilishi va ularni fiskal siyosatini ishlab chiqishda tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lish;

fiskal siyosatning zamonaviy muammolarini va ularni hal etish yo'llarini bilish;

tijorat banklari, sug'urta hamda lizing kompaniyalarida moliyani samarali boshqarish tamoyillarini bilish;

xalqaro moliya tizimini va undagi operatsiyalarni amalga oshirish tartib-taomillarini bilish;

xalqaro moliya munosabatlarida moliyaviy risklarni boshqarishning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini tadqiq etish;

xalqaro moliya institutlari, xalqaro korporatsiyalar faoliyatini tahlil etish;

moliyaviy markazlarning rivojlanishini tahlil qilish va xalqaro tajribalarni milliy iqtisodiyotga tadbiqu yuzasidan amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish;

xalqaro moliya bozoridagi operatsiyalarni tahlil qilish va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

bajarilayotgan xalqaro moliyaviy operatsiyalar yuzasidan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha xavfsiz matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lish;

xalqaro loyihalarning moliyaviy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo'yicha moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha xalqaro moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro moliyaviy operatsiyalardagi risklarni bartaraf etish, ushbu operatsiyalar samaradorligini oshirish, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha moliyaviy, iqtisodiy, strategik rejalarni ishlab chiqish, xalqaro moliya sohasida yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq eta olish.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

Ilmiy-tadqiqot ishi – mutaxassislikka tegishli muayyan mavzuda magistrlik dissertatsiya ishini tayyorlash bo'yicha tadqiqot olib borishga qaratiladi.

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) - ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ilmiy pedagogik ish — pedagogik malaka, ko'nikma va mahoratini oshirishga qaratiladi.

**4. Fanlar katalogining tuzilishi:**

T/r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>			
1.01	ITM1105	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	150	5	1
1.02	MFO'M1105	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	150	5	1
1.03	BOM1105	Boshqaruv moliyasi	150	5	1
1.04	MRB1205	Moliyaviy risklarni boshqarish	150	5	1
1.05	BSS1105	Budjet-soliq siyosati	150	5	2
1.06	BAM1205	Barqaror moliya	150	5	2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	<b>2,3</b>
<b>2.00</b>		Tanlov fanlar	<b>900</b>	<b>30</b>	<b>2,3</b>
	<b>Kvalifikatsiya</b>	<b>Moliyachi (tadqiqotchi, pedagog)</b>			
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti	600	20	1,2,3,4
		Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasi	1200	40	1,2,3,4
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, magistratura mutaxassisligi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va o'quv dasturi (magistratura dasturi), ta'lim natijalari, axborot-kommunikatsiya tizimlari, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellashtirish, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, nazariya, moliyaviy siyosat, davlat moliyasini boshqarish, moliya tizimi, moliyaviy nazorat, korxonalar moliyasi, davlat budjeti, budget daromadlari, budget xarajatlari, budget jarayoni, budget tizimi, budgetdan tashqari davlat jamg'armalari, sug'urta, ijtimoiy ta'minot, davlat krediti, moliya bozori, investitsiyalarni moliyalashtirish, fiskal siyosat, budget dotatsiyasi, budget subvensiyasi, budget profitsiti, budget taqchilligi, budget transferti, mahalliy moliya, davlat qarzlarini boshqarish, moliyaviy resurslarni boshqarish, xalqaro moliya institutlari, xalqaro moliya bozorlari, valyuta siyosati, to'lov balansi, xalqaro kapital migratsiyasi, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, moliyaviy xavfsizlik, moliyaviy risklar va ularni samarali boshqarish.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQLGAN:**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

**Rektor T.Z. Teshabayev**

2024-yil "14" \_\_\_\_\_



M.O'

**KELISHILDI:**

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi**

**Direktor M.R. Boltabayev**



2024-yil "14" \_\_\_\_\_

M.O'

**O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va  
moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik  
xizmati qo'mitasi**

**Rais M.B. Atadjanov**



2024-yil "19" \_\_\_\_\_

M.O'

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy  
universiteti**

**Rektor I.U. Majidov**




2024-yil "19" \_\_\_\_\_

M.O'

**O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya  
akademiyasi**

**Rektor E.A. Xoshimov**



2024-yil "19" \_\_\_\_\_

M.O'

**"ALSKOM SUG'URTA KOMPANIYASI"  
aksiyadorlik jamiyati**

**Bosh direktor T.G' Ilyosov**



2024-yil "20" \_\_\_\_\_

M.O'